

## MARDLAR QO'RIQLAYDI VATANNI

14 yanvar - Vatan himoyachilar kuni munosabati bilan Gidromelioratsiya fakulteti "Suv xo'jaligi va melioratsiya" yo'nalishi 1-kurs 102-guruh talabalari guruh murabbiysi "Irrigatsiya va melioratsiya" kafedrasi dotsenti Mamataliyev A.B. rahbarligida O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlar Davlat muzeyiga tashrif buyurishdi.



Dastlab guruh murabbiysi talabalarga O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarining tashkil etilishi, uning tinch, farovon hayotimizning ta'minlanishidagi o'rni va ahamiyati to'g'risida aytib o'tdi. So'ngra muzey bilan tanishildi.



Bu muzey O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga qarashli muassasalardan biri hisoblanib, 1965 - yilda Markaziy ofitserlar uyi qoshida Turkiston harbiy okrugi jangovarlik shuhrati muzeyi sifatida tashkil etilgan. U yerda 10 mingdan ziyod eksponatlar mavjud. Muzeyning asosiy ish faoliyati ekspozitsiyalar (buyum-ashyolar, hujjatlar, jangovar mukofotlar va qurol-yarog'lar) orqali yoshlар va harbiy xizmatchilarni harbiy vatanparvarlik, ona yurtga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashga qaratilgan.



Bu tashrif guruh talabalarida katta taassurotlar qoldirdi, mammuniyat baxsh etdi. Albatta, bu tashrif talabalarning vatanparvarlik tarbiyasini boyitish va yanada yuqori saviyaga ko'tarish uchun xizmat qiladi, jasoratli va mard bo'lib shakllanishida o'z o'rniga ega bo'ladi. Zeroki, Mardlar qo'riqlaydi Vatanni.



**Guruh murabbiysi dotsent Adham Mamataliyev axboroti  
Institut matbuot kotibi: Rahimboy Jumaniyozov**